

**O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida
“Davlat tili haqida”gi Qonuni hamda davlat tilini muhofaza qilishga oid boshqa
qonunchilik hujjatlari ijrosi bo‘yicha**

MA’LUMOTNOMA

Vazirlik va uning tizimidagi korxonalarda O‘zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash bo‘yicha tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda.

Vazirlik rasmiy sayti, elektron pochta manzillari nomlari hamda dasturiy ta’minot vositalari davlat tilida bo‘lishi ta’minlangan. Tizimda davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, o‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, yangiliklardan keng jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor qilib borish vazirlik rasmiy web-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali amalga oshirib kelinmoqda.

Vazirlik va tizimdagi tashkilotlarda to‘liq davlat tilida ish yuritish holatini ta’minlash, nazorat qilish va tartibga solish, bo‘limlarda barcha turdagi ichki hujjatlarni lotin yozuvidagi davlat tilida bo‘lishi, bino tashqi va ichki hududidagi bannerlar, eslatmalar, devoriy burchaklar, mehnat muhofazasi va yong‘in xavfsizligidan ogohlantiruvchi yo‘riqnomalar, barcha turdagi yozuvli belgilar, yo‘riqnomalarni Davlat tilida va xatosiz bo‘lishi e’tiborga olingan. Me’yoriy hujjatlar (buyruq, qaror, farmoyish va h.k.) lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida yuritilmoqda.

Muassasada o‘zga millat vakillari **14 nafarni** tashkil etadi, ushbu xodimlarning **9 nafarida** davlat tilini bilishi bo‘yicha sertifikat mavjud, qolgan xodimlarda notiqliq mahorati bo‘yicha sertifikat mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850-son Farmoni ijrosi bo‘yicha:

Muassasa tizimida ish yuritish davlat tilida (buyruqlar, chiqish xatlari, blank, muhr, shtamplar va h.k.), shuningdek, davlat xizmatlari, guvohnomalar davlat tilida taqdim etilgan.

Sohaning etuk mutahassislari olimlar, geograflar, tarixchilar, o‘lkashunoslar va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlari talablariga asosan kon-geologiya sohasidagi geografik obyektlar - konlarning nomlarini kon joylashgan hudud, uning nomi, tarixiy joylar hamda homashyoning turi va tarkibiga nisbatan davlat tiliga maqbullashtirish ishlarini olib bordilar.

Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq yoki muvofiq emasligi nuqtai nazaridan kon nomlari ro‘yxati davlat ekspertizasidan

o'tkazish uchun Respublika komissiyasiga topshirildi. Respublika komissiyasi o'tkazgan ish yakunlariga hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa asosida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi va "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" qonunlari ijrosini ta'minlash maqsadida Kon-geologiya vazirligi tomonidan **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish to'g'risidagi qarorlari loyihalari ishlab chiqildi va 2024-yilning 15-noyabr sanasida №766-sonli, 2025-yilning 18-iyun sanasida №379-sonli, 2026-yilning 9-yanvar sanasida №5-sonli Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan tasdiqlandi.**

Foydali qazilma konlari nomlarini belgilashda mahalliy aholi turmushining geografik, tarixiy, milliy, etnik, tilga oid va boshqa xususiyatlari hisobga olindi. O'zbekiston xalqining tarixi, an'analari bilan bog'liq ma'lumotlar chuqur o'rganildi va ayrim konlarga yangi nom berishda ushbu ma'lumlardan atroflicha foydalanildi.

Bundan buyon normativ-huquqiy hujjatlarda hamda ish hujjatlari va yozishmalarda mazkur tasdiqlangan nomlardan foydalaniladi. Hozirda Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi foydali qazilmalar konlari nomlari davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan tegishli hujjatlar hamda ma'lumotlar bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha zarur choralar ko'rilmogda.

Yer qa'ri davlat fondi kadastriga kiritilgan foydali qazilma konlarining nomlarini xatlovdan o'tkazish, ularni Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan foydali qazilma konlari nomlari bilan taqqoslash va belgilangan tartibda tasdiqlanmagan kon nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda yangi nom berish to'g'risida takliflar tayyorlash ishlari davom etmoqda.

Soha xodimlari va aholiga qulaylik yaratish maqsadida vazirlik mutahassislari tomonidan geografik obyektlarning eski va yangi nomlari kiritilgan Android mobil ilovasi yaratildi. Ushbu ilovani vazirlikning rasmiy veb-saytida yuklab olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 20-yanvardagi 34-son qarori ijrosi:

Tayinlangan maslahatchilar haqida ma'lumot:

Vazirlikda Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan. Ushbu lavozimga Ahmedova Ziyoda Kamunalovna (2023-yil 29-maydagi 160K-sonli buyruq asosida ishga qabul qilingan) faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston milliy universitetining filologiya fakultetini tamomlagan, falsafa fanlari nomzodi (PhD).

Maslahatchining yillik ish rejasi mavjud bo‘lib, bandlar ijobiy bajarilgan. Shuningdek, ommaviy diktant tadbirlari, xodimlar savodxonligini oshirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Maslahatchi ishtirokida chop etilgan “Qidiruv geofizikasi atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha izohli lug‘ati” butun tizimda foydalanilmoqda. Katta yutuqlardan biri “O‘zbekiston Respublikasining petrografik kodeksi” davlat tilida chop etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 117-son qarori ijrosi:

Qarorning 16-bandida mahalliy davlat hokimiyati organlari 2020-yildan boshlab o‘z tizimidagi tashkilotlarning budget va budgetdan tashqari xarajatlar smetasini shakllantirishda xodimlarining davlat tilida ish yuritish asoslari bo‘yicha malakasini oshirish uchun to‘lanadigan mablag‘lar rejalashtirilishini nazarda tutishi lozimligi belgilangan. Vazirlikdan 2025-yil uchun 20 nafar xodim rejaga kiritilgan bo‘lib, malakasini oshirish yakunida sertifikatga ega bo‘lishgan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Maklakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni ijrosi:

Davlat tiliga oid normativ-huquqiy hujjatlar saqlanadigan yig‘ma jildlarda talab etilgan hujjatlar mavjud. Buyruqlar lotin alifbosida tayyorlangan. Binoning kirish qismida vazirlik nomi lotin yozuvlarida yozilgan. Binoda sohaga oid tashqi va ichki stendlar osilgan, ma’naviyat burchagi tashkil etilgan va davlat tilida yozilgan. Vazirlik binosidagi mavjud boshqarma va bo‘limlarning eshiklarida ma’lumot beruvchi belgi yoki yozuvlar davlat tili qoidalariga asosida yozilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 61-son qarori talablari bajarilganligi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 61-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi raisining **2021-yil 15-fevraldagi 26-sonli** tegishli buyrug‘i hamda yo‘l xaritasi qabul qilingan.

- muhrlar, tamg‘alar, ish qog‘ozlarining matnlari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bo‘lishi: muassasada muhrlar, tamg‘alar, ish qog‘ozlarining matnlari lotin yozuvida yuritilmoqda.

- sohaga oid qonun hujjatlari mazmun-mohiyatining ijrochilarga yetkazilganligi:

Sohaga oid qonunchilik hujjatlari quyi tizimga doimiy ravishda yetkazilib borilgan, xatlar ijrochilarga lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuborilgan.

Farmonning III qismi 15-bandiga asosan davlat organlarining axborot tarmog'idagi veb-sahifalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida amalga oshishini ta'minlash belgilangan. Muassasa rasmiy internet sahifasi (<https://www.gov.uz/oz/mingeo>) o'zbek (lotin), rus va ingliz tillarida yuritilmoqda. Rasmiy internet sahifasidagi matnlar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida, imloviy xatoliklarsiz chop etilgan. Vazirlikning telegram ijtimoiy tarmog'i (t.me/uzdavgeolcom) ma'lumotlari mos ravishda o'zbek va rus tillarida yuritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 4-fevraldagi 52-son qarori amalga oshirilishi bo'yicha:

Tayinlanayotgan rahbar va mas'ul xodimlarning davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatiga ega bo'lishi uchun vazirlik (sobiq qo'mita) tomonidan <https://org.uzbmb.uz> saytiga nomzodlar haqidagi ma'lumotlar kiritib borilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining tegishli xatiga asosan vazirlikdagi **44 nafar rahbar xodimlardan 38 nafari testlarda ishtirok etishgan hamda sertifikatlarga ega bo'lishgan.**

**Vazirning ma'naviyat va davlat tili masalalari
bo'yicha maslahatchisi**

Z.Axmedova